

TURK MAQOLLARIDA OILA MAVZUSI

Sobirov G'ulomjon Xikmatjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Turk filologiyasi” kafedrası stajor-o'qituvchisi

Tel: +998 99 811-26-87

E-mail: gulomjon.sobirov.94@gmail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada turk maqollarida oila hayotining turli jihatlarini bilan bog'liq misollar izohlanadi. Xususan, nikoh va turmush qurish, oilada ota-ona o'rni va ahamiyati, farzandlar ta'lim-tarbiyasi, farzandlar o'rtasidagi munosabatlar va oila birligi borasidagi maqollardan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: *Maqol, turkiy xalqlar, oila, nikoh, ota-ona, farzand, ta'lim-tarbiya, oila birligi.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье объясняются примеры турецких пословиц, связанных с различными аспектами семейной жизни. В частности, используются пословицы о женитьбе и замужестве, роли и значении родителей в семье, воспитании и воспитании детей, отношениях между детьми и единстве семьи.

Ключевые слова: *Пословица, тюркские народы, семья, брак, родители, дети, воспитание, единство семьи.*

ABSTRACT

This article explains examples of Turkish proverbs related to various aspects of family life. In particular, proverbs are used about marriage, the role and importance of parents in the family, the upbringing of children, the relationship between children and the unity of the family.

Keywords: *Proverb, Turkish peoples, family, marriage, parents, children, upbringing, family unity.*

KIRISH

Biz turkiy xalqlarning ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.

Turmush o'rtoq tanlash va nikoh qurish inson hayotining eng muhim

vazifalaridan biri hisoblanadi. Maqollarda turmush qurmoq orqali nasl-nasabni davom ettirish g'oyasi ilgari suriladi. Turk tilida «*Ocağın yakışığı odun, evin yakışığı kadın*» maqolida “ o’choq nurinin o’tin bersa, uy nurini ayol beradi” ma’nosi bilan bir uyning «*issiq*» bir oila muhitiga aylanishi uchun munosib juft tanlashlikka urg'u berilgan va ayol kishining uyda oilasi, farzandlari bilan bo'lishi munosib ko'rilgan. «*Erken kalkan yol (alır), er evlenen döl alır*», «*At beslenirken, kız istenirken*» kabi maqollarda esa har bir ishda bo'lgani kabi turmush qurishda ham uyg'un bir vaqtning ko'z ostiga olinishi eslatilgan.

Qur'oni Karimda ham oila bilan bog'liq 100 ga yaqin oyatning nozil bo'lganligi, payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V) ning hadislarida ham oila to'g'risida bir qancha hadislarining mavjudligi Islom dinida oila qurish naqadar muhimligini ko'rsatadi. Mavzuga aloqador Hazrati Payg'ambarimizning bir hadisiga e'tibor qaratamiz: «*Sizden kimin evlenmeye gücü yetiyorsa hemen evlensin*»¹. Ushbu hadis orqali Payg'ambarimiz uylanishga buyurganlar va shu orqali kishining gunoh ishlardan o'zini asray olishini ta'kidlaganlar. Islom dinidagi bu talqinlar sabab «*Evlenenle ev alana Allah yardım eder*» va «*Nihâkta keramet vardır*» kabi maqollar paydo bo'lgan. Bu talqinlar va ular asosidagi maqollar yoshlarning turmush qurishliklari uchun ularga jasorat baxshida etib kelmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nikohda ayolning o'rni mavzusida turk tilida bir nechta maqollar mavjud. Bulardan, «*Evi ev eden avrat (yurdu şen eden devlet)*» va «*Yuvayı dışı kuş yapar*» kabi maqollarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Shuningdek, XV asrda qo'llanilgan «*Avret düdüğü evi Tanrı yıkmaz, avret bozduğu evi Tanrı yapmaz*»² maqolida ham ayol kishining oiladagi o'rni va ahamiyatiga urg'u berilgan. «*Avrat var ev yapar, avrat var ev yıkar*», «*Kadın vardır vezir eder, kadın vardır rezil eder*» kabi maqollarda esa ayol kishining oiladagi o'ziga yuklatilgan vazifalarni yaxshi bajara olsa, baxtli bir oilaga tayanch bo'lishi yoki aksincha bo'lishi mumkinligi eslatib o'tilgan. Ya'ni o'zbek tilidagi “Ernie r qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin” maqoli kabi er kishining baxti qaroligi ham, saodati ham ayol kishiga bog'liqdir.

Nikoh qarori qabul qilinayotganda ikki juftning bir-biriga mos bo'lishlari keyingi munosabatlarni sog'lom davom ettirishning muhim omillaridan hisoblanadi. «*Davul dengi dengine diye çalar*» degan maqol “Teng tengi bilan, tezak qopi bilan”

¹ Ebu Davud, Sünen, Nikah 1.

² Doğan Aksan, Türkçe'ye Yansıyan Türk Kültürü, Bilgi Yayınevi, Ankara 2008, s.53.

maqoliga aynan mos keladi va unda ifoda etilgan haqiqat islom fiqhshunoslari tomonidan e'tiborsiz qoldirilmagan va juftlar orasidagi diniy, iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni nikoh o'lchovi sifatida qabul qilishgan.

Turk tilidagi maqollarda oila qurish bilan birgalikda ota-ona va ularga hurmat ko'rsatish muhim ekanligiga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Ota-onani hurmat qilish, ular bilan yaxshi muomala qilish shart. Afsuski, bunday holatlarning kamayib borayotganligi *“Baba o'g'luna bağ bağıslamış, oğul babaya bir salkım üzüm vermemiş”*, (Ota o'g'liga bog' barpo qilibdi, o'g'il esa otasiga bir bosh uzumni ravo ko'rmabdi), *“Bir baba dokuz oğlu besler de dokuz oğul bir babayı besleyemez”* (*“Biro ta to'qqiz farzandni boqadi, to'qqiz farzand esa bir otani boqa olmaydi”*) kabi maqollarda o'z ifodasini topmoqda. Ota-onaning farzandlari uchun ko'rsatgan moddiy-ma'naviy fidokorliklariga qaramay, ayrim farzandlar har doim ham ularga munosib javob bera olmayaptilar. Islom dinining asosiy tamoyillar orasida ota-onaga yaxshi munosabatda bo'lish muhimdir. Chunki Qur'oni Karimda *«(Ey Muhammed!) De ki: Gelin, Rabbinizin size haram kıldığı şeyleri okuyayım: Ona hiçbir şeyi ortak koşmayın. Anaya babaya iyi davranın.»*³ deb buyurilgan. Boshqa bir oyatda esa *«Rabbin kendisinden başkasına asla ibadet etmemenizi, anaya babaya iyi davranmanızı kesin olarak emretti. Eğer onlardan biri, ya da her ikisi senin yanında ihtiyarlık çağına ulaşırsa, sakın onlara "öf!" bile deme, onları azarlama, onlara tatlı ve güzel söz söyle.»*⁴ deya ota-onaga qanday munosabatda bo'lish kerakligi buyurilgan.

Shuningdek, turk maqollarida ota-onaning hayotdagi o'rni va ahamiyatiga ko'p urg'u berilgan, ayniqsa, ona bilan bog'liq maqollar talaygina: *«Ağlarsa anam ağlar, gerisi yalan ağlar»*, *«Ana gibi yar (Bağdat gibi diyar) olmaz»*, *«Anasız kuzu melemez»*, *«Ana besler hurmayla, Eloğlu karşılar yarmayla»*, *«Analı kuzu kınalı kuzu»*. Ushbu maqollarda onaning farzand hayotidagi o'rni naqadar ulkan ekanligi ta'kidlangan.

Oilada farzand tarbiyasi eng muhim omil hisoblanadi. Maqollarda farzandlarga yoshliklaridan beriladigan ta'lim-tarbiya va bu holatda ota-onaning roli ko'rsatib beriladi. Farzand tarbiyasida ota-onaning ahamiyati to'g'risidagi maqollarga misol tariqasida *«Oğlan atadan öğrenir sofrı açmayı, kız anadan öğrenir biçki biçmeyi»*, *«Ananın çıktığı dala kızı salıncak kurar»* shularni keltirish mumkin. Ushbu maqollarda o'gil farzand tarbiyasida otaning, qiz farzand tarbiyasida esa onaning munosabatlari izohlanmoqda. *«Ön tekerlek nereden giderse, arka tekerlek de oradan*

³ Enam (6); 151.

⁴ İsrâ (17) 23,24.

gider» va «*İnsan göre göre, hayvan süre süre alışır*»⁵ maqollari esa ota-ona farzandlariga o'rnak bo'lishlarini ko'rsatib bermoqda. Jumladan, «*Yavru kuş, yuvada gördüğünü yapar*» maqolida ham ushbu fikrlar jamlangan. Ushbu maqolning o'zbek tilidagi ekvivalenti esa deyarli bir xil hisoblanadi: «*Qush uyasida ko'rganini qiladi*». Bugungi kunda hayotda ko'plab muammolarga duch kelamiz. Bulardan eng avvalosi bu - inson xarakteridir. Inson xarakteri qayerdan va qanday shakllanadi? Albatta, bu oiladan boshlanadi. Oila – bu juda nozik muassasa. Bu farzand dunyoga kelganidan, ota-onaning bir-biriga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Ota-onaning bosayotgan har bir qadami bolaning ongiga o'rnashib qoladi. Maqollar orasida farzandga tarbiya berishda ota-onaga yo'l ko'rsatuvchi maqollar ham mavjud: «*Abdal düğünden, çocuk oyundan usanmaz*». Ushbu maqolda farzand hayotida o'yinlarning muhim ekanligi ifoda etilgan. Shunga ko'ra, ota-onalar turli xil o'yinlar orqali farzandlarining ta'lim-tarbiyasini ta'sirchan va ko'ngilochar tarzda shakllantirishlari mumkinligi eslatib o'tilgan. Farzand tarbiyasidagi yana bir qoida borki, buni ota-onalar unutmasliklari lozim: «*Çok söyleme arsız edersin, aç bırakma hırsız edersin*». Shuningdek, hali aniq bir muvafaqqiyatga erishmagan yosh bolalarning yelkalariga mas'uliyat yuklamaslik, shunday bo'lgan holatda esa ularni yolg'iz qoldirmaslik kerakligi «*Çocuğa iş buyuran, ardınca kendi gider*» maqoli orqali eslatib o'tilgan. Ushbu turk maqolining o'zbek tilidagi ekvivalenti esa «*Bolaga iş buyur, ortidan o'zing yugur*» maqoliga mos keladi.

Oilada yuzaga keladigan muammolarga profilaktik choralar ko'rish borasidagi maqollar ham mavjud. «*Kızını dövmeleyen dizini döver*», «*Kızı gönlüne (kendi haline) bırakırsan ya davulcuya varır ya zurnacıya*». Bu maqollardagi asosiy ma'no ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar tufayli yuz berishi mumkin bo'lgan oilalarning buzilishini tezlashtiradigan omillarga qarshi kurashish hisoblanadi. Bu maqollar orqali ota-onalar farzandlariga kichik chog'laridan to'g'ri tarbiya bersalar, kelajakda bunday muammolardan nafaqat o'zlarini balki farzandlarini ham asrab qolishi mumkinligi ifoda etilmoqda. Farzandini sevgan, uni tarbiyalash yo'lida har qanday g'ayrat-u shijoatlarni ko'rsatgan ota-onalarning unutmasliklari kerak bo'lgan asosiy qurol «*İyi nasihat verilir, iyi ad verilmez*» maqolida ifoda etilgan. Ota-onaning bunday harakatlariga munosib ravishda farzand ham ularning bergan nasihatlariga astoydil amal qilishi darkordir.

Farzand bu eng oliy ne'mat hisoblanadi. Afsuski, ayrim juftliklar farzand ko'rishni salbiy qarshilaydilar va mana shunday kishilarni ifoda etgan maqollar ham yo'q emas. «*Evladın var mı derdin var*», «*Oğlan doğurdum oydu beni, kız doğurdum*

⁵ Erol Güngör, Ahlak Psikolojisi ve Sosyal Ahlak, Ötüken yayımları, İstanbul 2008, s. 215.

soydu beni», «*Oğlan doğur kız doğur, hamurunu sen yoğur*» kabi maqollarda farzand ko'rish bir muammo ekanligi ifoda etilmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, ba'zi farzand ko'rmagan juftliklar qolganlarga nisbatan baxtliroq ekan.⁶

Aka-uka, opa-singillar oilaning muhim bir bo'laklaridir. Ular o'rtasidagi munosabatlar ham maqollarda keng yoritib berilgan. «*Kardeş kardeşin ne öldüğünü ister, ne olduğunu*», «*Bir evde iki kız, biri çuvaldız biri biz*» singari maqollarda farzandlar o'rtasidagi raqobat, ota-onalarini bir-birlaridan qizg'anishlari kabi holatlarning mavjudligi izohlanmoqda. Haqiqatan ham, bunday raqobat bor. Chunki Odam (a.s) ning ikki o'g'li Hobil va Qobil yoki Yoqub (a.s) ning o'gillari haqidagi qissalarda ham aynan shu holat o'z aksini topgan. Farzandlar o'rtasidagi raqobatlar borasida olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, aka yoki opa o'zlarining kichik uka yoki singilli bo'lishliklaridan xabardor bo'lganlaridan so'ng ularda asabiylik, huzursizlanish, tirnoq yeyishlik kabi g'ayrioddiy holatlar kuzatilar ekan.⁷ Ammo «*Kardeşim olsun da kanlım olsun*» maqolida vaqt o'tgan sari aka-uka, opa-singillar o'rtasida qalin rishtalarning paydo bo'lishiga urg'u berilmoqda.

Oila birligi, hamjihatligi eng muhim omil hisoblanadi. «*Nerede birlik, orada dirlik*» maqoli buning isboti sifatida qaraladi. Shuningdek, er-xotinning shaxsiy munosabatlariga boshqalarning aralashmasliklari quyidagi maqollarda ifoda etilgan: «*Etle tırnak arasına girilmez*», «*El ağzına (sözüne) bakan karısını tez boşar*». ⁸ Oila birligi, hamjihatligida sadoqatning muhimligi «*Her çiçek koklanmaz*» maqolida eslatib o'tilgan. Shuningdek, er-xotin bir-birining ayb va nuqsonlariga ko'nikib yashashliklari quyidagi ikki maqolda ifoda etilgan: «*Ayıpsız yâr arayan, yârsız kalır*» va «*Gülü seven dikenine katlanır*». Har bir oilaning baxtli bo'lishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqollar bir necha ming yillik tajribalar natijasi, mahsuli va qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu maqolada oila ichidagi munosabatlarga aloqador maqollardan foydalandik. Maqollardan to'g'ri xulosa chiqarib, ularga amal qilish juda muhimdir.

REFERENCES

1. Pala, İskender. *Sözün Özünden Dünden Bugüne Atasözleri*, Kapı Yayınları, İstanbul, 2013.

⁶ Alfred Adler, İnsanı tanıma sanatı, Dergah yayınları, İstanbul 1985.

⁷ Emel Yiğen, Zonguldak İl Merkezinde Yuvaya Giden 3-6 Yaş Grubu Çocuklarda Kardeş Kıskançlığının Değerlendirilmesi, Yüksek Lisans Tezi, Zonguldak, 2005.

⁸ Nevzat Tarhan, Aile Okulu, Timaş Yayınları, İstanbul, 2010.

2. Ömer Asım Aksoy, Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İnkılap Yayınları, İstanbul, 2013.
3. Ebu Davud, Sünen, Nikah 1.
4. Doğan Aksan, Türkçe'ye Yansıyan Türk Kültürü, Bilgi Yayınevi, Ankara 2008, s.53.
5. Enam (6); 151.
6. İsrâ (17) 23,24.
7. Erol Güngör, Ahlak Psikolojisi ve Sosyal Ahlak, Ötüken yayınları, İstanbul 2008, s. 215.
8. Alfred Adler, İnsanı tanıma sanatı, Dergah yayınları, İstanbul 1985.
9. Emel Yiğen, Zonguldak İl Merkezinde Yuvaya Giden 3-6 Yaş Grubu Çocuklarda Kardeş Kıskançlığının Değerlendirilmesi, Yüksek Lisans Tezi, Zonguldak, 2005.
10. Nevzat Tarhan, Aile Okulu, Timaş Yayınları, İstanbul, 2010.
11. <http://kuran.diyinet.gov>